

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XODIM AYOLLARNING TUTGAN O'RNI

Mamarashidova O'g'iloy Baxodir qizi

"Ichki ishlar Vazirligi" akademiyasi 2-kurs kursanti

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistondagi xodim ayollarning bugungi kundagi natijalari, jamiyatdagi ishtiroki, xodim ayollarning ortib borayotgani, yurtimizda xotin-qizlar, voyaga yetmagan yoshlар tomonidan huquqbazarlik va jinoyatning keskin kamayishiga asos bo'lib xizmat qilayotgani yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekistondagi sportchi xodim ayollar, ayollarning jamiyatdagi ishtiroki, voyaga yetmaganlar, gender tenglik, jinoyatchilik, huquqbazarlik.

KIRISH

O'zbekiston respublikasida xodim ayollarning jamiyatda tutgan o'rni kun sayin o'zgarib kelmoqda. Bugungi kunda ayollar o'zlarining huquqlarini himoya qilish, siyosiy va ijtimoiy sohada faol ishtirok etish, oliy ta'lim oish, ishslash imkoniyatlariga ega bo'lish, boshqaruv sohalarida o'zaro hamkorlik qilish va boshqaruv organlarida o'z o'rinalariga ega bo'lmoqdalar. Bugungi kunda barcha sohalarda shu jumladan ichki ishlar, mudofaa, milliy gvardiya organlarida ham xotin-qizlar soni yil sayin ko'paymoqda. Sababi xodim ayollarimizga, jamiyatdagi qizlarimizga davlatimiz rahbari yuksak ishonch va shart-sharoitlar yaratib bermoqdalar. Xodim ayollarimizning ortib borayotgani bejiz emas. Prezidentimizning "Ayolni faqat ayol tushunadi" degan so'zleri buning asl sababidir.

Jismonan baquvvat, ma'nан yetuklikda davlatimizdagi xotin-qizlarimizga o'rnak bo'lish niyatida xodim ayollarimiz havas qilarli yutuqlarga erishmoqdalar. Bularidan ; O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi harbiy xizmatchisi Qodirova Rayxona Yusuf qizi book turi bo'yicha Xalqaro toifadagi sport ustasi, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi xodimi O'rmonova Malika joriy yilning 7-8-may kunlari Buxoro shahrida o'tkazilgan O'zbekiston championatida yettinchi marotaba O'zbekiston championi bo'ldi, Hushmurotova Muyassar endigi-na Ichki Ishlar organlari xodimlari safiga qo'shilganiga qaramay, joriy yilning 17-19-oktabr kunlari Nukusda ayollar kurashi bo'yicha bo'lib o'tgan "New Uzbekistan" musobaqasida oltin medal va championlik kamarini qo'lga kiritdi, Milliy gvardiya harbiy xizmatchisi Raximova Tursunoy Xalqaro toifadagi sport ustasi hamda "Jasorat" medali sohibasidir. Shu vas hu kabi boshqa xodim ayollarimiz huquqbu-zar, jinoyatchi ayollar qatlami bilan psixologik ishlamoqdalar. Kundan-kunga bun-day xodim ayollarimiz sonining oshib borishi jamiyatdagi xotin-qizlarimizning hu-quqbazarlik va jinoyatdan

tiyilishiga olib kelmoqda. Bu so'zning isbotini quyidagi holatlarda ko'rishimiz mumkin:

2022-yilda Qashqadaryo viloyatida xoltin-qizlar tomonidan 41ta, yoshlar tomonidan esa 23ta jinoyat sodir etilgan. Yil davomida xotin-qizlar masalalari bo'yicha profilaktika inspektorlari tomonidan respublika bo'ylab "Turmush" va "Nazorat" tadbirlari o'tkazilib, 11mingdan ortiq oilalarning muammolari yechilgan. Profilaktik ishlar va ko'rsatilgan psixologik yordam orqali 12 ming 843 nafar oila yarashtiril-gan, shuningdek 11ming 640ta oiladagi nizolar bartaraf etilgan. Yuqoridagi ko'rsatkichlar oldingi yillardagi ko'rsatkichlardan keskin pasayganini ko'rsatadi. Bundan bilishimiz mumkinki rostan ham "Ayol dardini ayol tushunadi". Xodim ayol qalbidan chiqqan so'zlar, jamiyatdagi ayollarning yuragiga yetib boradi. Hozirda ayollar, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar, huquqbazarlik-lar, oilaviy mojarolar, nikohdan ajralishlar barchasi xotin qizlarimizning huquqiy ongi pastligi va qonunlarni noto'g'ri tadbiq etishidan kelib chiqmoqda. Misol uchun; yosh qizlar va kelinlar gender tenglik tushunchasini to'g'ri anglab yetmaganlar. Gender tenglik aslida faqat huquqlarda tenglashishdir, majburiyatlarda emas. Manashu va shu kabi tushunchalarni to'g'ri anglab yetishlarida ularga ayol xodim-larimiz yordam beradi. Tizimdagi ayol xodimlarimiz jamiyatdagi xotin-qizlarimiz-ning erkak xodimlarga aytolmagan dardlarini tinglab yechim topsalar, yoshlik qilib jinoyatga qo'l urmoqchi bo'lган voyaga yetmagan yoshlарimiz bilan sidqi dildan ishlasalar davlatimizda oilalar farovon, jinoyat va huquqbazarliklar yo'q bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi.
2. Akadmvd.uz
3. Milliygvardiya.uz